Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 91
TABIIY FANLAR

AHOLI TURMUSH TARZI IJTIMOIY-GEOGRAFIK OBYEKT SIFATIDA XORIJIY MANBALARDA O'RGANILISHI

Dilshoda Hoshimovna Yuldasheva*
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
✉ dilshoda@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada aholi turmush tarzining ijtimoiy-geografik obyekt sifatida xorijiy geografiya fanida o'rganilishining nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Turmush tarzi tushunchasining shakllanish bosqichlari, uning fransuz, amerika va britaniya geografiya maktablari hamda inson geografiyasi, madaniy geografiya, radikal geografiya va vaqt-makon geografiyasi yo'nalishlarida talqin etilishi yoritilgan. Shuningdek, turmush tarzining hududiy tashkil topishi, tabiiy va ijtimoiy omillar bilan o'zaro bog'liqligi, inson taraqqiyoti, *turmush darajasi* va *turmush sifati* konsepsiyalari bilan uzviy aloqasi ilmiy manbalar asosida umumlashtirilgan. Tadqiqot natijalari aholi turmush tarzini ijtimoiy-geografik tadqiq etishning zamonaviy metodologik asoslarini aniqlash hamda O'zbekistonda mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar

aholi turmush tarzi, ijtimoiy geografiya, inson geografiyasi, madaniy geografiya, hududiy tafovutlar, geografik maktablar, Vidal de la Blash, Karl Sauer, Richard Hartshorne, Yi-Fu Tuan, Devid Harvi, Doreen Massi, Torsten Xagerstrand, inson taraqqiyoti, *turmush sifati*, *turmush darajasi*.

DOI: 10.5281/zenodo.21835594

Kirish. So'nggi yillarda dunyo geografiya fanida aholi turmush tarzini hududiy tashkil topish qonuniyatlari bilan bog'liq holda o'rganishga bo'lgan ilmiy qiziqish sezilarli darajada ortib bormoqda. Bunga urbanizatsiya, globallashuv, migratsiya jarayonlarining jadallashuvi, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarning chuqurlashuvi hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda inson omilining ustuvor ahamiyat kasb etayotgani sabab bo'lmoqda. Zamonaviy geografiya fanida aholi turmush tarzi nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar majmui, balki hududning tabiiy resurslari, ekologik sharoiti, madaniy qadriyatlari, tarixiy rivojlanish yo'li va jamiyatning ijtimoiy institutlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab hududiy tizim sifatida talqin etilmoqda.

Turmush tarzini geografik nuqtai nazardan tadqiq etish XIX asr oxiri va XX asr boshlarida fransuz geografiya maktabi vakillari tomonidan boshlangan bo'lib, keyinchalik amerika, britaniya hamda boshqa ilmiy maktablar tomonidan metodologik jihatdan yanada boyitildi. Mazkur ilmiy qarashlar natijasida turmush tarzining hududiy farqlanishi, madaniy landshaftlarning shakllanishi, inson va makon o'rtasidagi o'zaro ta'sir, vaqt-makon cheklovlari, ijtimoiy adolat hamda inson taraqqiyoti bilan bog'liq yangi nazariy yondashuvlar shakllandi. Natijada turmush tarzi geografiyasi ijtimoiy geografiyaning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi.

O'zbekiston geografiya fanida ham aholi turmush tarzini hududiy jihatdan o'rganishga ehtiyoj ortib bormoqda. Chunki mamlakat hududlari tabiiy sharoiti, demografik rivojlanishi, xo'jalik ixtisoslashuvi va infratuzilma bilan ta'minlanganlik darajasi bo'yicha sezilarli tafovutlarga ega. Ushbu tafovutlar aholining turmush tarzi, turmush sifati va ijtimoiy farovonligida ham o'z aksini topadi. Shu sababli xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan nazariy va metodologik yondashuvlarni tizimli tahlil qilish milliy tadqiqotlar uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi xorijiy geografiya fanida aholi turmush tarzining ijtimoiy-geografik obyekt sifatida shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, yetakchi ilmiy maktablar hamda olimlarning konseptual qarashlarini umumlashtirish va ularning zamonaviy ijtimoiy-geografik tadqiqotlardagi metodologik ahamiyatini yoritishdan iborat.

Natija va muhokama. Aholi turmush tarzini ijtimoiy-geografik obyekt sifatida tushunish va izohlash uchun avval ushbu tushunchaning ilmiy mazmunini aniqlab olish zarur. Turmush tarzi (ingl. *way of life*, *lifestyle*; rus. *образ жизни*; fr. *genre de vie*) tushunchasi ko‘p qirrali ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hodisani ifoda etadi va u nafaqat sotsiologiya, antropologiya, iqtisodiyot fanlarida balki geografiyada ham markaziy tadqiqot obyektlaridan biri sifatida tan olinmoqda. Bu tushuncha aholining hayot faoliyati shakli, mehnat va dam olishni tashkil etish tarzi, oilaviy munosabatlar, ovqatlanish madaniyati, kiyim-kechak, uy-joy sharoitlari, ma’naviy-madaniy qadriyatlar va ehtiyojlarini qondirish usullarini birgalikda qamrab oladi. Turmush tarzi tushunchasining ilmiy muomalaga kiritilishi XIX asrning oxirgi choragiga to‘g‘ri keladi. Fransuz geografi Pol Vidal de la Blash 1903-yilda nashr ettirilgan (“Fransiya geografiyasining manzarasi” (Tableau de la géographie de la France) asarida “turmush tarsi” atamasini birinchi marotaba ilmiy muomalaga kiritdi va uni inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatning markaziy tushunchasi sifatida talqin qildi [14]. Olimning fikriga ko‘ra, har bir hududda yashayotgan aholi guruhi o‘zining tabiiy muhitiga mos keluvchi va asrlar davomida sayqallangan turmush tarziga ega bo‘ladi. Bu yondashuv geografik possibilizm konsepsiyasining negizini tashkil etib, tabiat insonga ma’lum imkoniyatlar majmuini taqdim etishi, ulardan qaysi birini tanlash esa madaniy-tarixiy omillarga bog‘liqligini ifodalaydi.

Vidal de la Blash maktabining yo‘nalishini davom ettirgan Jan Bryun, Maks Sorr va Alber Demanjon kabi olimlar turmush tarzining hududiy o‘zgaruvchanligini, uning tabiiy, iqtisodiy va madaniy omillar bilan aloqalarini chuqur tahlil etishgan. Xususan, Maks Sorr 1948-yilda nashr etilgan “Inson geografiyasining asoslari” (Les fondements de la géographie humaine) asarida turmush tarzini “muhit va inson o‘rtasidagi muvozanat shaklida asoslangan uyg‘unlik” deb ta’rif beradi [12]. Ushbu ta’rifda turmush tarzining ikki muhim jihati o‘z aksini topgan: birinchidan, uning makon va hududiylik xususiyati, ikkinchidan, uning jamoaviy-ijtimoiy mohiyati.

XX asrning birinchi yarmida amerika geografiyasida turmush tarzi konsepsiyasi Karl Sauer rahbarligidagi Berkli madaniy-geografik maktabida o‘ziga xos tarzda rivojlandi. K.Sauer 1925-yilda chop etilgan “Landshaftning morfologiyasi” (The Morphology of Landscape) klassik asarida madaniy landshaft konsepsiyasini ilgari surdi, bunga ko‘ra inson va uning turmush tarzi tabiiy landshaftni madaniy landshaftga aylantiruvchi asosiy omil ekanligi ta’kidlandi [11]. K.Saurning bu yondashuvi keyinchalik madaniy geografiya, etnogeografiya va turmush tarzi geografiyasining shakllanishida fundamental ahamiyat kasb etdi. Olimning qarashlarida turmush tarzi nafaqat iqtisodiy faoliyat shakli, balki madaniy meros, urf-odatlar, til, dinning landshaftda moddiylashgan ifodasi sifatida talqin qilindi.

Geografiya fanida turmush tarzini neopozitivistik yondashuv asosida o‘rganishga harakat qilgan Richard Hartshorne o‘zining mashhur “Geografiyaning tabiati” (1939) asarida geografiyaning predmeti sifatida hududiy farqlanishni asoslab berdi [7]. Uning yondashuvi bo‘yicha har bir hudud noyob bo‘lib, undagi aholi turmush tarzi ham shu hududning tabiiy va ijtimoiy xususiyatlarining yig‘indisi sifatida shakllanadi. R.Hartshorne keyingi “Geografiya tabiatiga bir nazar” (Perspective on the Nature of Geography, 1959) asarida ushbu yondashuvni yanada chuqurlashtirib, “hududiy integratsiya” tushunchasini ishlab chiqdi. Bu konsepsiyaga binoan turmush tarzi hududda mavjud bo‘lgan barcha komponentlarning – tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-integratsiya natijasi sifatida namoyon bo‘ladi [6].

XX asrning ikkinchi yarmida geografiya fanidagi “miqdoriy inqilob” natijasida turmush tarzi tadqiqotlariga matematik-statistik usullar keng joriy etila boshlandi. Bu yo‘nalishda Brian Berri va Piter Xaggettning ishlari muhim o‘rin tutadi. Brian Berri o‘zining “Bozor markazlari va chakana savdo geografiyasi” (Geography of Market Centers and Retail Distribution, 1967) va “Shaharlashuvning insonga ta’siri” (The Human Consequences of Urbanisation, 1973) asarlarida shahar muhitining aholi turmush tarziga ta’sirini sonli ko‘rsatkichlar asosida o‘rgangan. Olimning fikriga ko‘ra, urbanizatsiya jarayonida aholining an’anaviy qishloq turmush tarzi shahar turmush tarziga aylanadi, bu esa aholi soni, oila strukturasi, mehnat faoliyati, ehtiyojlar va istemollik xulq-atvorida tub o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi [1].

Piter Xaggett esa “Inson geografiyasida joylashuv tahlili” (Locational Analysis in Human Geography, 1965) asarida hududiy tahlilning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqdi va aholi turmush tarzining hududiy farqlanishini o‘rganishda fazoviy modellashtirish yondashuvini taklif etdi [4]. Olimning yondashuvida turmush tarzi farqlari hududiy nuqtai nazardan modellashtirilishi mumkin bo‘lgan o‘ziga xos qonuniyatlarga ega bo‘lib, ular bo‘yicha hududlarni rayonlashtirish va tipologik tasniflash imkoniyati yaratiladi.

1970-yillarning oxiri va 1980-yillarda turmush tarzini tadqiq etishning yangi yo‘nalishi – inson geografiyasi shakllandi. Bu yo‘nalishning yetakchi vakili Yi-Fu Tuan o‘zining “Makon va joy: Tajriba nuqtai-nazari” (Space and Place: The Perspective of Experience, 1977) asarida turmush tarzi va makonni inson tajribasi orqali tushunish zaruriyatini asosladi [13]. Olimning fikriga ko‘ra, ma’lum bir hududda yashagan aholi uchun bu hudud nafaqat geografik koordinatalar majmui, balki tug‘ma joy, ona zamin, ma’naviy va hissiy bog‘liqlik mavjud bo‘lgan makondir. Shu sababli turmush tarzi tadqiqotlarida aholining hududga bo‘lgan munosabati, yashash joyi hissi, topofiliya (joyga muhabbat) kabi subyektiv jihatlar ham hisobga olinishi kerak.

Inson geografiyasining yana bir ko‘zga ko‘ringan vakili Devid Lay 1980-yillarda turmush tarzining hududiy farqlanishini ijtimoiy guruhlar, jamoa, mahalla darajasida tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqdi. Uning yondashuvi bo‘yicha turmush tarzi nafaqat moddiy, balki ma’naviy-madaniy o‘lchovga ham ega bo‘lib, uni o‘rganishda statistik usullar bilan birga sifat tadqiqot usullari ham qo‘llanilishi kerak.

Turmush tarzini tadqiq etishda alohida o‘rin tutuvchi yondashuv – *radikal geografiya* sifatida Devid Harvi tomonidan asoslab berildi. D.Harvining “Ijtimoiy adolat va shahar” (Social Justice and the City, 1973), “Kapital limitlari” (The Limits to Capital, 1982) va keyingi asarlari turmush tarzining ijtimoiy adolat, makonni iste’mol qilishdagi tafovutlar, ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi farovonlik tengsizligi konteksida o‘rganishni taklif etadi [8]. Olimning yondashuvi bo‘yicha kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari hududiy darajada o‘ziga xos turmush tarzi tafovutlarini keltirib chiqaradi va bu tafovutlar nafaqat tabiiy yoki tarixiy omillar, balki ijtimoiy-sinfiy mexanizmlar bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Doreen Massi o‘zining “Koinot uchun” (For Space, 2005) va “Mehnatning borliq taqsimoti” (Spatial Divisions of Labour, 1984) asarlarida makon va turmush tarzini ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar konteksida tahlil qildi. Olimaning yondashuvi bo‘yicha har bir makon nafaqat tabiiy geografik xususiyatlarga, balki tarixan shakllangan ijtimoiy munosabatlar tarmog‘iga ega bo‘lib, aynan shu munosabatlar turmush tarzining hududiy o‘zgaruvchanligini belgilab beradi [10]. D.Massining konseptual yondashuvi turmush tarzining nafaqat hududiy, balki vaqt o‘lchovida ham dinamik xarakterga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shvetsiyalik geograf Torsten Xagerstrand turmush tarzini *vaqt-makon geografiyasi* yondashuvi asosida o‘rganishni taklif etdi. Olim 1970-yilda chop etilgan “Mintaqaviy fanlar sohasidagi mutaxassislar haqida nima deyish mumkin?” (What about people in regional science?) maqolasida individning kunlik faoliyati makon va vaqt o‘lchovida hududiy izlar qoldirishini matematik aniqlikda ifodalash mumkinligini asosladi [3]. T.Xagerstrandning yondashuvi individning kunlik harakatlari, mehnat va dam olish faoliyati, ijtimoiy aloqalarini makon va vaqt koordinatalarida modellashtirish imkoniyatini yaratdi. Bu yondashuv keyinchalik turmush tarzining mikro darajadagi tadqiqotlari uchun fundamental metodologik vositaga aylandi.

Frantsuz geografi Pol Klaval o‘zining “Madaniyat geografiyasi” (Géographie culturelle, 1995) asarida madaniy geografiya yondashuvini rivojlantirib, turmush tarzini madaniyatlar ilmiy asosi sifatida tahlil qildi. Olimning yondashuvi bo‘yicha har bir hududda turmush tarzi tarixiy davrlar davomida shakllangan madaniy qadriyatlar tizimi asosida o‘zgaradi va u doim dinamik tarzda rivojlanadi [2]. P.Klavalning konseptual yondashuvi geografik determinizm va possibilizm orasidagi muvozanatli yo‘lni topishga urinish sifatida tan olinadi.

Britaniya geografi Ronald Jonston turmush tarzini saylov geografiyasi (elektoral geografiya) va siyosiy geografiya o‘zaro aloqadorligida tadqiq etib, jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlarning hududiy joylashuvi va ularning ijtimoiy-siyosiy ustuvorliklari o‘rtasidagi munosabatni ochib berdi [9]. Olimning fikriga ko‘ra, turmush tarzi nafaqat iqtisodiy yoki madaniy, balki ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida ham talqin qilinishi mumkin.

Turmush tarzini geografik tadqiq etishda *aholi farovonligi* va *inson taraqqiyoti* konsepsiyalari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu sohada Pokistonlik iqtisodchi Mahbub ul Haq va hindistonlik iqtisodchi-faylasuf Amartya Sen tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar fundamental hisoblanadi. Mahbub ul Haq Birlashgan Millatlar Tashkilotining Rivojlanish dasturi (UNDP) tomonidan 1990-yilda chop etilgan birinchi “Inson

taraqqiyoti to'g'risidagi hisobot”da (Human Development Report) inson taraqqiyoti konsepsiyasini ilmiy muomalaga kiritdi va Inson Taraqqiyoti Indeksini (ITI, inglizcha – HDI (human devolepment index)) asoslab berdi [5]. Bu konsepsiyaga koʻra, taraqqiyot nafaqat iqtisodiy oʻsish, balki insonlarning hayot davomiyligini uzaytirish, ta’lim olish imkoniyatini kengaytirish va munosib turmush sharoitiga ega boʻlishini ta’minlash bilan oʻlchanishi kerak.

Amartya Sen oʻzining “Development as Freedom” (1999) asarida turmush tarzini inson erkinligi va imkoniyatlari sharoitida tahlil qildi. Olimning “qobiliyatlar yondashuvi” (capability approach) boʻyicha aholi farovonligi insonning real qila olishi mumkin boʻlgan ishlar va u erisha oladigan hayot variantlari bilan oʻlchanadi [Sen A. Development as Freedom. -New York: Anchor Books, 1999. -366 p.]. Bu yondashuv keyinchalik UNDPning Inson Taraqqiyoti Indeksining metodologik asosi sifatida tan olindi va bugungi kunda jahonning aksariyat davlatlarida aholi turmush sifatini baholashda asosiy mezon hisoblanadi.

Aholi turmush tarzini geografik oʻrganishda *turmush darajasi* (standard of living) va *turmush sifati* (quality of life) tushunchalarining nazariy farqlanishi muhim oʻrin tutadi. *Turmush darajasi* asosan miqdoriy koʻrsatkichlar (jon boshiga toʻgʻri keluvchi daromad, iste’mol miqdori, uy-joy maydoni, davolash xizmatlaridan foydalanish imkoniyati) bilan tavsiflanadi. *Turmush sifati* esa nafaqat moddiy, balki ma’naviy, ekologik, ijtimoiy-psixologik jihatlarni ham qamrab oladi. Germaniyalik faylasuf-iqtisodchi Erhard Ayken 1970-yillarda turmush sifati konsepsiyasini ilmiy muomalaga kiritib, uning koʻp oʻlchovli xarakterini koʻrsatib berdi. Hozirgi kunda turmush sifatini baholashda “Better Life Index (Yaxshiroq hayot indeksi)” (OECD), “Quality of Life Index (Hayot sifati indeksi)” (Numbeo), “World Happiness Report (Butunjahon baxt hisoboti)” (BMT) kabi xalqaro indekslar keng qoʻllanilmoqda.

Xulosa. Xorijiy geografiya fanida aholi turmush tarzini oʻrganish yuz yildan ortiq davr mobaynida izchil rivojlanib, turli ilmiy maktablar va metodologik yondashuvlar bilan boyib bordi. Fransuz geografiya maktabi turmush tarzini inson va tabiiy muhit oʻrtasidagi tarixiy moslashuv mahsuli sifatida talqin qilgan boʻlsa, amerika madaniy geografiyasi uni madaniy landshaftlarning shakllanish omili sifatida baholadi. Keyingi bosqichlarda hududiy tahlil, miqdoriy metodlar, inson geografiyasi, radikal geografiya, vaqt-makon geografiyasi hamda inson taraqqiyoti konsepsiyalarining rivojlanishi natijasida turmush tarzining hududiy tashkil topishini koʻp omilli tizim sifatida oʻrganish imkoniyati yaratildi.

Tahlillar shuni koʻrsatadiki, zamonaviy geografiyada aholi turmush tarzi faqat iqtisodiy koʻrsatkichlar bilan emas, balki ekologik sharoit, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy munosabatlar, hududiy identiklik, inson imkoniyatlari va hayot sifati bilan uzviy bogʻliq murakkab ijtimoiy-geografik hodisa sifatida qaralmoqda. Shu bois uni tadqiq etishda miqdoriy va sifat usullarini uygʻunlashtirish, hududiy tahlil, fazoviy modellashtirish hamda kompleks indikatorlardan foydalanish muhim metodologik talab hisoblanadi.

Mazkur xorijiy tajribalar Oʻzbekistonda, xususan, hududlar kesimida aholi turmush tarzining shakllanish omillari, hududiy tafovutlari va ularning tabiiy-xoʻjalik majmualari bilan oʻzaro bogʻliqligini oʻrganishda mustahkam nazariy-metodologik asos boʻlib xizmat qiladi. Bu esa ijtimoiy-geografik tadqiqotlarning ilmiy salohiyatini oshirish, hududiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish hamda aholining hayot sifati va farovonligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berry B.J.L. The Human Consequences of Urbanisation: Divergent Paths in the Urban Experience of the Twentieth Century. – New York: St. Martin’s Press, 1973. -205 p.
2. Claval P. Géographie culturelle: une nouvelle approche des sociétés et des milieux. –Paris: Armand Colin, 2003. -287 p.
3. Hägerstrand T. What about people in regional science? // Papers of the Regional Science Association. –1970. –Vol. 24. -P. 6–21.
4. Haggett P. Locational Analysis in Human Geography. –London: Edward Arnold, 1965. -339 p.
5. Haq M. Reflections on Human Development. –New York: Oxford University Press, 1995. -252 p.
6. Hartshorne R. Perspective on the Nature of Geography. – Chicago: Rand McNally & Company, 1959. -201 p.

7. Hartshorne R. The Nature of Geography: A Critical Survey of Current Thought in the Light of the Past. –Lancaster, PA: Association of American Geographers, 1939. - 469 p.
8. Harvey D. Social Justice and the City. – London: Edward Arnold, 1973. –336 p.
9. Johnston R.J. Geography and Geographers: Anglo-American Human Geography since 1945. –London: Edward Arnold, 1991. -366 p.
10. Massey D. For Space. –London: SAGE, 2005. -222 p.
11. Sauer C.O. The Morphology of Landscape // University of California Publications in Geography. - 1925. –Vol. 2, № 2. P. 19–53.
12. Sorre M. Les fondements de la géographie humaine. T. III: L'habitat. — Paris: Armand Colin, 1952. –542 p.
13. Tuan Y.-F. Space and Place: The Perspective of Experience. –Minneapolis: University of Minnesota Press, 1977. -235 p.
14. Vidal de la Blache P. Tableau de la géographie de la France. — Paris: Hachette, 1903. -395 p.